



TSUL LIBRARY

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
AXBOROT-RESURS MARKAZI

Z.N.Talipova
M.S.Talipova

110

yilligiga

bag'ishlangan yorqin yodnoma

O'ZBEKNING OLIMA AYOLI
XADICHA SULAYMONOVA



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHIKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKNING OLIMA AYOLI
XADICHA SULAYMONOVA**

(110 yilligiga bag‘ishlangan yorqin yodnoma)

TOSHKENT–2023

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	3
XADICHA SULAYMONOVANING BOLALIGI	4
XADICHA SULAYMONOVANING TALABALIK YILLARI	6
ILK O‘ZBEK HUQUQSHUNOS AYOLI	7
ADLIYA VAZIRI	10
OLIY SUD RAISI	15
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	24

SO‘ZBOSHI

Mazkur risola xalqimizning iftixori o‘zbekning jonkuyar va fidoyi ayoli, huquqshunos, olim, jamoat arbobi Xadicha Sulaymonovaning yorqin xotirasiga bag‘ishlanadi. Risolada birinchi huquqshunos mutaxassis o‘zbek ayoli, yuridik fanlar doktori, professori, akademigi hayot yo‘li haqida va huquq ilmini rivojlanishiga hamda mamlakat ravnaqiga ulkan xissa qo‘shganligi haqida yoritilgan.

Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishini xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi, oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

XADICHA SULAYMONOVANING BOLALIGI

Mamlakat ravnaq topganligini xotin-qizlarga bo'lgan imkoniyatlardan bilish mumkin. Tabiiyki, har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy qarashlari mavjud. Ularni shakllantirish, rivojlantirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish ulkan tarixiy voqealarga sabab bo'ladi. Zero, har qanday ma'naviyatni yuksalishi, avvalo yurt ayollarining ma'naviy saviyasini belgilaydi. Ko'hna tariximizda o'chmas iz qoldirgan, o'zining jasorati va matonati bilan nom qoldirgan To'maris, Nodirabegim, Anbar otin, Saroy Mulk Xonim, Uvaysiy, Dilshod otin singari ayollarimiz el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, garchi ular ayol bo'lsalarda millat sha'nini, or-nomusini saqlashda Vatan taqdiriga befarq emasliklarini tarix sahifalaridan bizlarga ma'lumdir. Shu qahramonlardan ta'sirlanib XX asrning porloq yulduzi, 1913-yil 3-iyul kuni ziyolilar oilasida o'zbekning olimasi Xadicha Sulaymonova dunyoga kelgan. Unga ishchanlik qobiliyati otasidan meros bo'lib qolgan. Otasi Sulaymon Kelginboyev ko'p vaqtini ishda ya'ni karvonsaroyda o'tkazar edi. Chunki, Sulaymon butun Turkiston bo'ylab sayyohlik qilar, uzoq-yaqindan kelgan karvonlarni joylashtirish, kutib olish, ijara haqqi masalalarida o'zi bosh bo'lar edi. U turkman, qozoq, qirg'iz va tojik tillarida bimalol gaplasha olar edi. Asosiysi rus tilini mukammal bilgani uchun boshliqlari unga ishonar edi. Sulaymon aka uchinchi farzandi Xadicha Sulaymonova mamlakatning huquqshunos olimasi, Adliya vaziri, O'zSSR ning oliy sudi raisi bo'lishini ko'rganda edi, shunday qizning otasi ekanligidan faxrlangan bo'lardi. Sulaymon aka bosmachilarga qarshi kurashda halok bo'ldi. Turmush

o'rtog'ini o'limidan Xadicha Sulaymonovaning onasi Otincha aya hech ham o'zini yo'qotmadi aksincha, u o'zbek ayollarga xos sabr matonat bilan bolalariga ham ota, ham ona bo'ldi. Otincha aya qiyin sharoitda ham farzandlarini savodli bo'lishiga harakat qilar edi. Uning 4 ta farzandi ham rus maktabida tahsil oladi. Sho'rolar hokimiyati davrida har xil yoshdagi bolalar bir sinfda savod chiqarishar edi. Bolalari yaxshi baholarga o'qishi bilan boshqa bolalardan ajralib turishardi, bundan onalari juda xursand bo'lardi. Otinchi aya ham zavodda ishlar ham o'zbek tili o'qituvchilar tayyorlov kursida o'qirdi. U bolalariga otasi qanday inson bo'lganligi haqida ko'p hikoya qilib berardi va farzandlar otasi bilan faxrlanishardi.

XX asrning 20–30-yillari O'rta Osiyo mintaqasi ayollari taqdirida tub burilish yasadi. Ularning turmush tarzi, ijtimoiy faolligi, jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy xulq-atvori tubdan o'zgardi. Markaziy Osiyo ayollarining ko'cha kiyimi bo'lgan paranjini yo'q qilish uchun turli harakatlar boshlashdi. Ayollarning paranji yopinishiga qarshi harakat nomi "Hujum" deb ataldi. Bu voqeadan so'ng jamiyatda, ayniqsa erkaklar orasida noroziliklar avj oldi, ko'plab oilalarda nizo chiqdi, odamlar ongida norozilik kayfiyati kuchaydi. Paranjisini tashlagan ayollarni vahshiylarcha o'ldirishdi. Ikki yilda paranjisini tashlagan 2500 ayol o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Ilk qurbonlar Surmaxon Shermatova o'zining eri tomonidan, Osilxon Sodiqovani eri bo'g'ib o'ldiradi va yosh san'atkor Nurxon Yo'ldoshxo'jayevani esa akasi mutaassiblarning ta'siri bilan iste'dodli singlisini pichoqlab o'ldiradi. 1936-yilda adib Komil Yashin Nurxonning hayotiga bag'ishlangan "Nurxon" pyesasini yozdi. Marg'ilonda Nurxonning qotili ustida ochiq sud bo'lgan. Bunda 17 yoshli Xadicha Sulaymonova ham bor bo'lgan. U sud protsessida ishtirok etar ekan, qalbida huquqshunoslik kasbiga mehr uyg'ondi. Yosh Xadicha qoralovchi sifatida qatnashgan Tojixon Shodiyevaning qat'iyat bilan gapirishidan katta taassurot oldi. U Andijonga kelishi bilan onasiga huquqshunos bo'lishini aytadi va Otinchi aya qizining bu fikrini ma'qulladi.

XADICHA SULAYMONOVANING TALABALIK YILLARI



Xadicha Sulaymonova 1931-yilda to‘qqiz yillik rus maktabini tamomlab orzulari sari yo‘l oldi. U huquqshunoslik sohasini mukammal o‘rganishga qaror qildi, Sovet qurilishi va huquq ilmiy tadqiqot institutining tayyorlov kursida o‘qiy boshladi. Bir yildan keyin Toshkentda tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilish va huquq institutining ikkinchi kursiga o‘qishga qabul qilinadi. Xadicha Moskva va Leningraddan kelgan professorlardan tahsil olib, darslarni nihoyatda puxtalik bilan o‘zlashtiradi va jamoat ishlarida faol qatnashib institutning peshqadam talabalari safidan joy oladi. Nihoyat u kutgan kun keldi. Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutini birinchi qaldirg‘ochlari, huquqshunos kadrlar yetishib chiqqanligi munosabati bilan katta tadbir o‘tkazildi. Xadicha hayojonda: “Bugun menga diplom berishadi va men hayotga, sevgan ishimga yo‘l olaman”, - degan fikrlar hayolidan o‘tardi. Unga O‘zbekiston Markaziy Ijroiya Komitetining raisi Yo‘ldosh Oxunboboyev tomonidan tantanali ravishda topshirildi.



ILK O‘ZBEK HUQUQSHUNOS AYOLI

Xadicha Sulaymonova xalq sudyasi bo‘lib ishlay boshladi. 1935-yilning oxirida yigirma ikki yoshida respublika Oliy sudi a‘zolidiga saylandi. Uni bu mas’uliyatli ish aslo cho‘chitmadi. Hatto dam olish kunlari ham ishga kelar, jinoyat ishlarini mukammal o‘rganar, qiyin vaziyatlarda esa Oliy sudning raisi E.M. Udrisdan maslahat olardi. U Oliy sudda o‘z bilim va tajribalarini uch yil davomida oshirdi va ustozlari professor Ivan Ivanovich Krilsevning “Aspiranturada o‘qing, harakat qilsangiz katta olim bo‘lasiz”, – degan gaplariga rioya qilib, intilishlari sari olg‘a qadam tashladi. Xadicha 1938-yil Moskva yuridik instituti sovet jinoyat huquqi kafedrasini aspiranti bo‘ldi. Unga taniqli olim, yuridik fanlar doktori, professor A.I. Traynin ilmiy rahbar bo‘ldi.

Mavzusi: “Harbiy intervensiya va grajdanlar urushi davrida O‘zbekistonning jinoyat qonunlari”. U dissertatsiyasini tugatolmay qoldi, chunki Ulug‘ Vatan urushi boshlandi. Hamma qurollarini ko‘tarib frontga yo‘l oldi. Xadicha Sulaymonova esa qayerda foydasi ko‘proq tegsa o‘sha yerga borishini aytdi va uni Toshkentga yuridik institutiga yuborishdi. U ikki yil assistent, so‘ng dotsent vazifasini bajaruvchi bo‘lib, talabalarga jinoyat huquqi fanidan chuqur bilib berar, dars berar kechalari esa o‘z ilmiy ishini yozish bilan shug‘ullanar edi. 1945-yil SSSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunittifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va huquqshunoslik fanlar nomzodi ilmiy darajasini oldi. O‘zbekning birinchi huquqshunos ayoli sifatida tarixga kiritildi. Shu yil sentabr oyida Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasiga mudir etib tayinlandi. U yana shijoat bilan talabalarga jinoyat ilmlarini o‘rgata boshladi. 1948-yil doktorlik

dissertatsiyasini yozish uchun u SSSR Fanlar akademiyasining Huquq institutiga doktoranturasiga qabul qilindi. 1950-yil Xadicha Sulaymonova “O‘zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, Toshkent davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasining professori bo‘ldi. O‘zbekistoni jinoyat huquqining paydo bo‘lishi va rivojlanishi muammolarini ko‘rib chiqishga o‘tishdan oldin olima ilmiy tadqiqotlarida o‘zbek xonliklari va mustamlaka Turkiston jinoyat qonunchiligining asosiy xususiyatlarini tahlil qiladi. O‘zbek xonliklari davrida jinoyat huquqi munosabatlarining mohiyatini ochib berdi va Sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilganidan keyin jinoyat huquqi, sudlarning yuzaga kelish tarixi bilan bog‘liq asarlar yaratdi. Ma’lumki, inqilobga qadar Turkistonda amalda bo‘lgan jinoyat huquqi Chor Rossiyasi yerli xalqlarni mustamlaka zulmi ostida ezish quroliga aylangandi. Turkiston ASSR va O‘zbekiston SSRda jinoyat qonuni va sud qurilishida bir qator o‘zgarishlar yuzaga keldi, lekin bu sohada muammolar ham kam emasdi. U ayni paytda, sotsializm g‘alabasi davrida O‘zbekistonda jinoyat huquqining takomillashuvi masalalariga ham alohida e’tibor qaratdi.

Xadicha Sulaymonova o‘z ilmiy-tadqiqotlarida 1926-yilning iyun oyida kuchga kirgan O‘zbekiston jinoyat kodeksiga mukammal tavsif berdi. Jinoyat kodeksidagi jinoyat huquqi normalarini tahlil qilib sharhlar ekan, bu normalar o‘sha davr uchun xarakterli bo‘lgan jinoyatlarga va qonunbuzarliklarga nisbatan qo‘llash amaliyotiga, jazolash siyosatiga muvofiq ekanligini aniq yoritib berdi.

Xadicha Sulaymonova 1954-yilda Toshkent yuridik institutiga direktor qilib tayinlanadi va shu yili Respublika Oliy soveti prezidiumi farmoniga ko‘ra “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. 1955-yilning iyul oyida yuridik institut tugatilib, O‘rta Osiyo universitetining yuridik fakultetiga aylantiriladi. Olima fakultet dekani vazifasida ishlaydi va ayni paytda “Jinoyat huquqi” kafedrasiga mudirlik qiladi. Iste’dodli olim, chuqur bilim sohibasi Xadicha Sulaymonova Respublikada juda ko‘p savob ishlarni amalga oshirdi va huquqshunoslik fanini rivojlantirishga g‘oyat katta hissa qo‘shib ketdi. Shuni faxr bilan aytish joizki, o‘zbek millatining qatag‘on qilingan va nomlari nohaq

qoralangan, “xalq dushmani” degan tamg’a ostida yo‘q qilib yuborilgan yoki qamoqxonalarda nima aybi uchun o‘tirganini bilmaganlarni, qonuniylik asosida ular istiqlol kurashchilari, o‘z millatining asl farzandlari ekanligini amalda isbotlashga, ularni batamom oqlashdek sharaflı ishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. 1956-yili Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi huzurida 1937–1938-yillardagi “Katta terror”da qatag‘on qilinganlarni rehabilitatsiya qilish bo‘yicha komissiya tuzilgan. Uning a‘zolari qilib O‘zbekistondan 2 kishi tayinlangan, biri N.A. Muhitdinov, ikkinchisi akademik, yurist Xadicha Sulaymonova tasdiqlangan. Bu har ikki yurtdoshimiz O‘zbekiston bo‘yicha “Katta terror”da qatag‘on qilinganlarni rehabilitatsiya qilishda ulkan xizmatlar qilishdi. Yosh olim ayol aql-idrogi, salohiyati va bilimi bilan o‘z yurtdoshlarini aybsizligini faktlar bilan isbotlab bera oladi va guruh rahbari O‘zbekiston Ministrlar Sovetining raisi Nuritdin Muhitdinovni hayratga soladi. Nafaqat u balkim dunyoga mashhur SSSR Bosh prokurori R.A. Rudenkoni ham qoyil qoldiradi. “Bunchalik chuqur bilimga ega o‘zbek qiziga men tan berdim” – deb aytadi prokuror. O‘sha yili 40 mingga yaqin xalq dushmani deb otilgan yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan kishilar oqlanadi. Shuni faxr bilan aytish joizki, o‘zbek millatining qatag‘on qilingan va nomlari nohaq qoralangan, “xalq dushmani” degan tamg’a ostida yo‘q qilib yuborilgan yoki qamoqxonalarda nima aybi uchun o‘tirganini bilmaganlarni, qonuniylik asosida ular istiqlol kurashchilari, o‘z millatining asl farzandlari ekanligini amalda isbotlashga, ularni batamom oqlashdek sharaflı ishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

ADLIYA VAZIRI



Ministrlar Sovetining raisi Nuritdin Akramovich Muhitdinov tavsiyasiga ko'ra, Xadicha Sulaymonova 1956-yil 17-sentabrda O'zbekiston SSR Oliy soveti prezidiumining farmoni bilan Adliya vaziri lavozimiga tayinlanadi. U o'ylab ham o'tirmay birinchi kundan ishga kirishdi. Ish jarayonida vujudga keladigan masalalarni tezlik bilan hal qilishni yo'lga qo'ydi, huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalarida qonunlarni targ'ib qilishda tegishli ko'rsatma berdi. Vazir sifatida faoliyatini xalq sudlari ishi bilan tanishuvdan boshladi. Qoraqalpog'iston ASSR, Andijon, Farg'ona, Samarqand va boshqa viloyatlarga o'zi borib, sudlar faoliyatini tahlil qildi. Muvaffaqiyatlarni ommalashtirdi, kamchiliklarni bartaraf etdi. U sudyalardan sud jarayonini yuksak saviyada o'tkazishni, protsessual normalarga amal qilishni, adolat asosida ish yuritib, sudlarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishni talab qildi va sud tomonidan tayinlangan jazo qilmishga yarasha bo'lishini odilona hukm chiqarishlarini qayta-qayta takrorlardi. U hech qachon qattiqqo'l rahbar bo'lmadi, ovozi sira baland ko'tarmay oqilona ravishda vaziyatni tartibga solardi, bu bilan u ishda qandaydir g'ayrioddiy tartib-intizomga erishadi. 1957-yilning 11-fevralida SSSR Oliy sovetining to'rtinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida qabul qilingan qonunga muvofiq ittifoqdosh respublikalarning sud tuzilishi haqidagi qonunlarini, grajdanlik, jinoyat va protsessual kodekslarini ishlab chiqish va qabul qilish huquqi ularning o'zlariga berildi. Ittifoq organlari esa sud tuzilishi, sud ishlarini yuritish qonunlari asoslarini,

grajdanlik, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunlari asoslarini ishlab chiqish va qabul qilish vakolatiga ega bo'ldi. Shu munosabat bilan Adliya vazirligida O'zbekiston SSR Oliy sovetining qonunlar loyihasini ishlab chiqish komissiyasi tuzildi. Bu komissiya Respublika Oliy soveti prezidiumi yuridik bo'limi bilan hamkorlikda faoliyatini boshladi. Adliya vazirligida O'zbekistonning yangi kodekslarini tayyorlash ishlari boshlandi. Bu mas'uliyatli ishga Sulaymonova rahbarlik qildi. Yangi sud tuzilishi, jinoyat va jinoyat-protsessual, grajdanlik va grajdan-protsessual, oila, yer-suv hamda mehnat kodekslarini tayyorlovchi barcha guruhlar ishini muvofiqlashtirish hamda umumiy rahbarlik qilishni eng avvalo vazirning o'zi boshqarardi. O'zbekiston SSR jinoyat va jinoyat-protsessual kodeksi loyihasini tayyorlovchi guruhga Xadicha Sulaymonova rahbarlik qildi. U bu sohaning taniqli mutaxassisi sifatida qonunlarning ko'pgina normalarini o'zgartirish va yaxshilashga oid qimmatli takliflar kiritdi.



1959-yil 21-mayda birinchi chaqiriq O'zbekiston Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi O'zbekiston sud tuzilishi haqida haqidagi Qonunni, ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib qabul qiladi hamda respublika jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslarini tasdiqlaydi. Bu hujjatlar 1960-yil 1-yanvaridan kuchga kirdi. 1961-1963-yillarda grajdanlik va grajdanlik-protsessual kodekslarni tayyorlashga ham Xadicha Sulaymonova bosh bo'ldi.


Xadicha Sulaymonovanning hayotidan yana bir unutilmas kun bu 1956-yil oktabr oyida akademik degan yuksak ilmiy darajaga loyiq deb ko'rishdi. U yuridik fanini rivojlanishidagi katta xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.



Xadicha Sulaymonova sud ekspertizasini, sud-tergov organlari ish sifatini yaxshilash uchun kriminalistika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga katta e'tibor bergan. O'sha vaqtda Adliya vazirligi

huzuridagi Toshkent Kriminalistika ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi talabiga javob berolmas, yangi jihozlar sotib olgan bilan jiddiy o‘zgarishlarga erishib bo‘lmashligini hisobga olib, ushbu laboratoriyani tubdan yangilash Sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish ishlariga kirishadi va hukumatga murojaat qiladi. Hukumat tomonidan bu taklif ma’qullanadi. 1958-yilning 24-yanvarida Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil topdi va u kriminalistika muammolarini ochib beradi va eng yaxshi jihozlar bilan ta’minlanadi. Hozirda bu institut Adliya vazirligi huzuridagi Respublika sud ekspertizasi markazi akademik X. Sulaymonova nomi bilan yuritiladi.

Xadicha Sulaymonova Falsafa va huquq instituti bo‘limi boshlig‘i bo‘lib faoliyat boshlangan kezlarda O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi bo‘yicha kitob nashr qilish fikri tug‘ilib qoladi va o‘zi boshchiligida Falsafa va huquq instituti huquq bo‘limi xodimlari boshchiligida uch jildidan iborat “O‘zbekiston sovet davlat va huquqi tarixi” nomli kitob nashrdan chiqariladi. Kitobning birinchi jildida Inqilobga qadar Turkiston davlat va qonunchilikning yaratilish tarixi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari davrida ijtimoiy va davlat tizimining asosiy xususiyatlari ko‘rsatilgan. Oktabr inqiloblari haqida yoritilgan. Kitobning ikkinchi jildida esa O‘zbekiston SSRning tashkil topish tarixi va mamlakatimizda sotsializm qurish uchun kurash davrida O‘zbekistonda ijtimoiy va davlat tuzumi, sovet sudi va ayrim huquq sohalarining yanada rivojlanishi yoritilgan. Uchinchi jild O‘zbekiston Sovet davlati va huquqi taraqqiyoti tarixining muhim davrni (1937-1958), mamlakatimizda sotsializmning yakuniy g‘alabasi davrini qamrab oladi. Bu yerda arxiv materiallarini o‘rganish asosida tegishli davlat organlarining me’yoriy hujjatlari, turli ko‘rsatma va nizomlari, ijtimoiy va davlat tuzilishi masalalari, shuningdek, O‘zbekiston SSR sotsialistik huquqini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bu noyob kitoblar Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazining ilmiy fondida saqlanib kelmoqda.




34
И-907

История советского государства и права Узбекистана: Том 1. (1917-1924 гг.). / Ответственные редакторы: академик АН УзССР Х.С.Сулайманова, членкорреспондент АН УзССР А.И. Ишанов – Т.: Фан, 1960. - 512 с. - 2 р. 20 к.

В первом томе монографии по истории Советского государства и права Узбекистана на основе изучения и анализа материалов историко-правового характера излагаются основные черты общественного и государственного строя в Узбекистане в первые годы после победы Великой Октябрьской социалистической революции.

Книга рассчитана на широкий круг читателей: юристов, историков, философов, преподавателей, аспирантов, студентов гуманитарных факультетов, а также всех интересующихся вопросами истории Советского государства и права Узбекистана.




34
И-907

История советского государства и права Узбекистана: Том 2. (1924-1937 гг.). / Ответственные редакторы: академик АН УзССР Х.С.Сулайманова, членкорреспондент АН УзССР А.И. Ишанов – Т.: Фан, 1963. - 826 с. - 4 р. 31 к.

В данной книге освещается история создания Узбекской ССР и дальнейшего развития общественного и государственного строя, советского суда и отдельных отраслей права в Узбекистане в период борьбы за построение социализма в нашей стране.

Книга рассчитана на широкий круг читателей: юристов, историков, философов, преподавателей, аспирантов, студентов гуманитарных факультетов, а также всех интересующихся вопросами истории Советского государства и права Узбекистана.



История советского государства и права Узбекистана: Том 3. (1937-1958 гг.). / Ответственные редакторы: академик АН УзССР Х.С.Сулайманова, членкорреспондент АН УзССР А.И. Ишанов – Т.: Фан, 1968. - 676 с. - 3 р. 35 к.

В третьем томе освещается важный период в истории развития Советского государства и права Узбекистана (1937— 1958 гг.) — период окончательной победы социализма в нашей стране. На основе изучения архивных материалов, нормативных актов, различных инструкций и положений соответствующих государственных органов здесь рассматриваются вопросы общественного и государственного устройства, а также развития социалистического права УзССР.

Книга рассчитана на широкий круг читателей — юристов, историков, философов, преподавателей, аспирантов, студентов гуманитарных факультетов.

Akademik Xadicha Sulaymonova 1959-yilning mart oyida O‘zbekiston Oliy Soveti deputati etib saylandi. Deputatlik faoliyati davomida mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘liq qonunlarning qabul qilinishida yuksak malakali huquqshunos sifatida o‘z maslahat va takliflari bilan faol ishtirok etadi.



OLIIY SUD RAISI

1964-yil aprel oyida ro'znomalarning birida xotin-qizlar davlatning yirik rahbarlik sohalarida faoliyat yuritayotganlari haqida maqola bosilib chiqdi. Ular orasida Oliy sud raisi Xadicha Sulaymonova ham bor edi. Bu yerda ishlash jarayonida huquq-targ'ibot ishlarini zamonaviy ilmiy asosda tashkil etishga, amaliyot bilan nazariyani uyg'unlashtirishga harakat qildi. Shu maqsadda respublika Oliy sudi huzurida jamoatchilik asosida ilmiy-konsultativ kengash tuzildi va bu kengash tarkibiga tajribali yuristlar, sudyalalar hamda taniqli olimlar kiritildi. Bu kengash ko'p yillar samarali faoliyat olib bordi. Sulaymonova asossiz qattiq jazo choralarini qo'llashga qarshi edi, shafqatsiz jazo qo'llash bilan emas, sud adolatligi orqali mustahkamlanadi der edi. Sudyalardan har bir jinoiy ishni ochishda o'z shaxsiy javobgarligini oshirishni talab qilardi.

Xadicha Sulaymonova hech qachon vaqti bilan hisoblashmasdi. Issiq kunlarning birida hukumat organlarida bo'lgan majlisdan chiqib, tushga yaqin o'z idorasiga qaytib keladi. Majlisda muhokama qilingan masala favqulodda jiddiy bo'lganidan ishda ko'p bahslashuvlarga sabab bo'lgan bo'lsa kerak, Sulaymonovanning fikri faqat shu masalalar bilan band bo'lib, Oliy sudga qaytib kelishi hamono tezda nimalar qilish zarurligida edi. Ikki soatdan keyin esa fuqarolarni qabul qilish kerak. Hovlida, daraxt soyasidagi o'rindiqlarda soch-soqoli oqargan qariya o'tiribdi. Kiyimiga qaraganda bu kishi shaharlikka o'xshamas, uzoq yo'l bosib, olis rayondan kelganga o'xshaydi. U sud binosiga kiraverishda kimni kutyaptiykin? Balki u raisga emas, apparat xodimlaridan yoki sud a'zolaridan birortasiga uchrashmoqchimikin? Xadicha Sulaymonova boshqacha xarakterdagi

odam bo'lganda edi, cholning oldidan indamay o'tib keta berar, o'zining zarur ishlari bilan shug'ullanib, soat rosa ikkida qabulni boshlardi. Agarda chol uning qabuliga kirmoqchi bo'lgan bo'lsa, navbati kelganda kirib, o'z dardini aytardi. Lekin Xadicha Sulaymonova bukchayib qolgan qariyaning oldidan o'tib ketolmadi, undan respublika Oliy sudiga nima sababdan kelganini so'radi. Qariya shunday javob berdi:

— Biladigan odamlardan kimga uchrashsam ekan, deb so'rasam, bosh sudyaga, deb maslahat berishdi, qizim. Bu yerga kelishga keldimu, kimga uchrashishimni bilmayman. Nima qilishimni bilmay o'tiribman, bosh sudya qayerdaligini kimdan so'rasam ekan. U mening dardimga quloq solarmikin.

Xadicha Sulaymonova kuldi-da, dedi:

— Men bilan yuring, ota, sizga yordam berishga harakat qilaman.

— Balli, rahmat qizim, bo'lmasa umidimni uzib o'tiruvdim. Uzoqdan, Samarqanddan kelganman...

Qariya Sulaymonova bilan xonaga kirganda xuddi shu ayol respublikaning bosh sudyasi ekanligini tushunib, nihoyatda hayron qoldi. Shubhasiz, qariya judayam hayratda edi, lekin o'zini biroz tutib olgandan keyin o'z dardini batafsil aytib berdi. Xadicha Sulaymonova qariyaning fikrini bo'lmay, uning dardini oxirigacha eshitdi. Balki, qariyaga o'z hayotida birinchi marta sudya bilan suhbatlashishga to'g'ri kelganini, shuning uchun ham u iltimos bilan kelishining sababini atroflicha tushuntirishga harakat qilib, suhbatdoshiga o'z ishining ikir-chikirigacha aytib bermoqchi bo'lganini tushunardi. Qariya iltimosining qisqacha mazmuni mana bunday edi: kolxozda haydovchi bo'lib ishlaydigan o'g'li avariya qilib, bir kishiga shikast yetkazgan. Shunga binoan o'g'lini ozodlikdan mahrum etishgan. O'g'lining xotini juda kasalmand, qariya esa nabiralariga qaray olmaydi. Ro'zg'or tebratib turgan farzandi qamalib qolib, oilaga moddiy yordam beradigan kishi yo'q. Xadicha Sulaymonovaning rahmi keldi. O'rnidan turib, ish stoli yaqiniga keldi-da, telefon trubkasini ko'tardi...

Sulaymonova suhbatdoshi bilan xayrlasharkan unga samimiylilik bilan shunday dedi:

— O'g'lingizni ko'rishga ruxsat berishadi. U bilan ko'rishgandan keyin uyingizga jo'nayvering. Men o'g'lingizning ishini so'rattirdim, taxminiy ma'lumotlarga qaraganda, balki sizning oilangizga yordam berolsak kerak. Qariya O'rnidan qo'zg'aldi, minnatdor bo'lganidan ko'zlari yoshga to'ldi. Xadicha Sulaymonova xonadan chiqib ketayotgan qariyani to'xtatdi-da:

— Hali shoshmang, ota, O'g'lingizni ozod qilsa bo'ladimi, yo'qmi, buni sharoit ko'rsatadi,— dedi. Respublika Oliy sudining raisasi ish bilan chuqur tanishib chiqqach, yosh haydovchini qoralashda ortiqcha qattiqqo'llik qilingan, degan xulosaga keldi. Qariyaning o'g'li qamoqda o'zini yaxshi tutgan, yaxshi ishlagan, yuz bergan voqeadan g'oyatda tashvish tortgan. Xadicha Sulaymonova hukmni yumshatishning obyektiv sabablarini har taraflama o'yladi, uni qamoqdagi yigitning oilasidagi ahvol ko'proq tashvishlantirardi: kasal xotini va yosh bolalarini boqadigan kishi yo'q. Agarda xalq sudi aybni yengillashtiradigan sabablarni, aybdorning oilaviy ahvolini o'z vaqtida hisobga olganda boshqacharoq hukm chiqarilgan bo'lardi. Xadicha Sulaymonova hukmni o'zgartirish va qamoqdagi yigitga shartli jazo qo'llash haqidagi protestga imzo chekdi. O'zbekiston SSR Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sud kollegiyasi bu protestni ko'rib chiqib, haqiqiy ahvolni hisobga olganda aybdorning bundan buyon qamoqda yotishi o'rinsiz, uni qamoqxonadan ozod qilish kerak, deb hisoblab, protestni ma'qulladi¹.

Oliy sudi raisini huzuriga kelgan har bir fuqaro haqiqatni adolatni qonuniylikni izlab keladi va Sulaymonova hamisha haqiqatni tiklab berardi. Xadicha Sulaymonova jinoyat ishlarini sudga qadar qanday tergov qilinganligini, har doim ham taxminlarga asoslanib ish ko'rib bo'lmasligini, tergovchi biron-bir xatolikka yo'l qo'ymaganligini ham katta e'tiborga olardi. U tergov qilishda yo'l qo'yilgan xatolarga toqat qilolmas, qonun talablari buzilganda birontasi ham uning nazaridan chetda qolmas edi.

¹ Хакимов М. ва бошх. Хадича Сулаймонова — ҳуқуқшунос, олима, давлат арбоби /М. Хакимов, Ғ. Аҳмедов, А. Саидов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 34-35 б.

Sulaymonova hamma vaqt ham sud qarorini yengillashtira bermas, jinoyatchi qonunga qarshi ish qilib qo'yib, o'z aybiga iqrор bo'lgan taqdirdagina kechirish mumkin, deb hisoblardi. Og'ir jinoyat sodir bo'lgan taqdirda respublikaning bosh sudyasi rahm-shafqat qilmas, faqat qonunga asoslanar, qonun nima desa, shunga amal qilardi. Bordi-yu eng oliy jazo qo'llash lozim bo'lib qolgan taqdirda hech ikkilanmay hukmni imzolardi.

Olima mashhur huquqshunos sifatida London, Sofiya, Qohira, Tokio, Dehli, Praga, Kolomboda o'tkazilgan turli ilmiy anjumanlarda bir necha marta so'zga chiqib, yurisprudensiya va oila sotsiologiyasi muammolari bo'yicha chuqur bilimga ega ekanligini namoyish qildi. X.S. Sulaymonovaning birinchi aspiranti M.S. Vosiqova (sobiq Adliya vaziri) bo'lgan edi. U Xadicha Sulaymonova yosh ilmiy kadrlar tayyorlashga qanchalik g'amxo'rlik qilgani to'g'risida shunday deydi: "Professor X.S. Sulaymonova nihoyatda band bo'lishiga qaramay, olimlar tayyorlash ishiga hamisha vaqt topardi. U har bir ilmiy xodimni o'z farzandidek tarbiyalardi. U iltifotli, sezgir, qalbi pok inson edi. O'zini ayamassan qalb amri bilan ishlardi".

Akademik Xadicha Sulaymonova og'ir dardga yo'liqqandi. Dardi zo'riqqanidan beri boshqa ishga o'tish masalasi ustida bosh qotirar, bir necha marta O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi Sharof Rashidov qabulxonasiga qo'ng'iroq qilish uchun go'shakni ko'tarar, lekin ikkilanib qo'yib qo'yar edi. Ammo dardning xuruji kuchaydi. Endi tezroq qaror qabul qilish kerak deb Sharof Rashidovga so'zlarini bayon qildi. O'zini o'rniga iste'dodli shogirdi Respublika prokurorining o'rinbosari Sa'dulla Xo'jayevich Po'latxo'jayevni tavsiya qildi. Sa'dulla Po'latxo'jayev Oliy sud rais birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. Sulaymonova ozgina ishlari yengillashganini his qildi, ammo unga yopishgan dard borgan sari qattiq xuruj qilayotgandi. Sa'dulla Po'latxo'jayev opaning dardini yengillashtirish uchun qo'ldan kelgan barcha ishlarni qiladi. Uni Moskvaga olib borib, malakali shifokorga ko'rsatib bir necha marta davolantirgan. Afsus, Xadicha Sulaymonovaning shifo topishi uchun Hukumat rahbarlari, shogirdlari harakatlari samarasiz edi, u tuzalmas dardga mubtalo bo'lgandi.

Uzoq kasalligi natijasida Xadicha Sulaymonova 1965-yil 26-noyabr 52 yoshda vafot etdi. “Sovet O‘zbekiston” gazetasi 1968-yil 15-avgustdagi sonida Xadicha Sulaymonova to‘g‘risida shunday so‘zlar yoritilgan edi. “Akademik Xadicha Sulaymonova og‘ir kasallik vaqtida: “Menga hech bo‘lmasa yana bir yilcha umr kerak edi, bir yil... ilmiy fikrlarimni yozib qoldirishim uchun” degan edi. Bu – chin yurak so‘zlari edi. Hali yosh, lekin yirik olim bu qolgan bir yilni ham o‘zining hayoti uchun emas, balki ilm-fan uchun bag‘ishlamoqchi edi.” Yuqori malakali huquqshunos olim, davlat va jamoat arbobi, akademik Xadicha Sulaymonova qisqa, lekin sarmazmunli hayot yo‘li o‘zbek xalqiga ibrat namunasidir.

1935-1938-yillarda xalq sudyasi, O‘zSSR Oliy sudi a‘zosi, 1945-yil yurisprudensiya sohasida birinchi ayol, 1950-1952-yillarda yuridik fanlar doktori, professor, 1954-yilda Yuridik instituti direktori, O‘zSSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, 1956-yil O‘zSSR FA haqiqiy a‘zosi, akademik, 1956-1958-yillarda O‘zSSR Yustitsiya ministri, 1959-1964-yillarda O‘zSSR Ministrlar soveti huzuridagi yuridik komissiya raisi, 1964-yilda O‘zSSR Oliy sudi raisi unvonlar va lavozimlar bilan taqdirlangan.

Xalqimizning huquqiy madaniyatini oshirishda beminnat xizmati singigan olim ma’rifatchining nomi barcha mutaxassislar uchun mo‘tabar hisoblanadi. U yoshlarni mehnatga muhabbat qo‘yishga undarkan, fanga ixlos qo‘ymagan, butun kuchini va o‘z hayotini baxsh etmagan kishidan olim chiqmasligini tushuntirardi. Iste’dodli olim, chuqur bilim sohibasi Xadicha Sulaymonovna Respublikada juda ko‘p savob ishlarni amalga oshirdi va huquqshunoslik fanini rivojlantirishga g‘oyat katta hissa qo‘shib ketdi. Xadicha Sulaymonova bizga va kelajak avlodga katta ilmiy meros qoldirdi. Hozirgacha amal qilayotgan, Xadicha opa rahbarligida tayyorlangan qonunlar, majmualar (kodekslar), uning ilmiy asarlari va maqolalari bu merosning bir qismidir. Xadicha opa tabiatan kamtar, halol, pokiza va ajoyib insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, birinchilardan bo‘lib davlat arbobi bo‘lgan o‘zbek ayoli edi. Xadicha opa chin inson edi. U baxtli va omadli rahbar bo‘ldi. O‘z xalqini sevish va unga fidoyi bo‘lishda tengi yo‘q edi. Xadicha opa o‘zbek millati uchun yashadi, xalqining dardi-g‘amiga doimo sherik bo‘ldi. Har bir millatning yaxshi fazilatlarini


o'zida mujassamlashtirgan insonlar, shu millat vakillari orasidan chiqang yetuk kishilar, atoqli arboblari bo'ladi. Ular shu millatning ko'rki va faxri hisoblanadi. Lekin inson umri mangu emas. Vaqti kelib, ular ham hayotdan ko'z yumadilar. Ammo ularning nomlari millat xotirasidan sira o'chmaydi. Xadicha Sulaymonova o'zbek millatining ko'rki bo'lmish insonlardan biri edi. Xadicha opa qisqa umri davomida atoqli olim, murabbiy, davlat va jamoat arbobi, o'ziga xos yorqin huquqshunos sifatida tanildi. Xadicha opa barcha ishda oldinda bo'lish, ish bobida talabchanlik, odamlarning dardiga malham bo'lishdek fazilatlarni butun umr davomida o'zida mujassamlashtirdi. Akademik olim, huquqshunoslik ilmi va amaliyoti borasida qoldirib ketgan meros uning vorislari – yosh huquqshunoslar tomonidan tarixiy, huquqiy ma'rifat namunalari sifatida ijodiy o'zlashtirilib, keyingi avlodlarga yetkazib berilmoqda. Xadicha Sulaymonova ayollarni davlatda, jamiyatda, oilada o'z o'rinini topishlarida ularni qo'llab-quvvatladi va bu borada o'zi ham namuna bo'ldi, deb faxr bilan ayta olamiz.

Toshkent Davlat Yuridik Universitetida Axborot-resurs markazining ilmiy fondida saqlanib kelayotgan Xadicha Sulaymonova haqidagi noyob asarlari bibliografiyasi:

349.3

C-67

Совет жинойт хукуқи: махсус қисм. Дарслик.- Т.: Ўқитувчи, 1965. – 444 б.



34

C-896/1

Сулаймонова Х.С.

Собрание сочинений Т.1/ Сулаймонова Х.С. - Ташкент, 1967. - 306 с. - 1р14 к

В книгу вошли труды Х.С. Сулаймановой по вопросам уголовного права и суда узбекских ханств и дореволюционного Туркестана. Большое место занимают исследования автора по проблемам возникновения и развития Советского социалистического уголовного права и суда в Туркестанской АССР.

Издание рассчитано на научных работников, аспирантов и студентов вузов, занимающихся вопросами истории и теории уголовного права, судостроительства республик Советского Востока.

Книга представляет большой интерес для работников органов прокуратуры, суда и юстиции, а также широкого круга читателей, интересующихся богатым опытом создания и деятельности советских судебных органов с первых дней Октябрьской революции до национально-государственного размежевания Средней Азии.



34
С-896/2


Сулаймонова Х.С.

Собрание сочинений Т.2/ Сулаймонова Х.С.

- Ташкент, 1968. - 190 с. - 75 к

Во второй том Собрания сочинений Х. С. Суланмановой вошли работы, освещающие создание и основные этапы развития советского уголовного права и Уголовного кодекса Узбекской ССР с конца 1924 по 1937 г. Подробно анализируются основные институты Уголовного кодекса УзССР 1926 г. На большом фактическом материале показывается служебная роль Уголовного законодательства в осуществлении индустриализации, коллективизации сельского хозяйства и культурной революции Узбекистана.

Издание рассчитано на юристов, ученых и практических работников и всех, интересующихся вопросами развития советского государства и права.



34
С-896/3

Сулаймонова Х.С.
Собрание сочинений Т.3/ Сулаймонова Х.С.
- Ташкент, 1971. - 375 с. – 2 р 54 к.

В третий, заключительный, том Собрания сочинений Х. С. Сулаймоновой вошли работы по двум основным проблемам.

Первая из них включает вопросы раскрепощения женщин Средней Азии, приобщения их к активной общественно-политической и культурной деятельности. На фактическом материале раскрывается роль советского законодательства в охране прав и интересов женщин Узбекистана. Специальный раздел посвящен международному значению опыта раскрепощения женщин Советского Востока.

Вторая проблема охватывает вопросы истории государства и права, разработки новых кодексов республики, укрепления социалистической законности и правопорядка.

В книге приведены отзывы и выступления Х. С. Сулаймановой на отдельные диссертации. В конце тома даны воспоминания учеников и соратников Х. С. Сулаймановой.



34
Х-162


Хакимов М.
Академик Хадича/ М Хакимов. - Т.:
Узбекистон, 1972. - 82 с. - 14 к.

Светлой памяти Хадичи Сулайманооой – юриста, цпного, общественного деятеля – посвящается этот очерк.

Мы всегда с гордостью произносим слова: «Они были первыми!», говоря о ветеранах революции героях гражданской войны и мирного труда в период становления Советской власти. Хадича Сулайманова

была в числе того поколения бойцов, которое участвовало к строительству социализма, закладывало основы коммунизма.

Хадича Сулайманова прожила сравнительно короткую, но яркую, впечатляющую жизнь. Первая женщина узбечка – специалист по юриспруденции, доктор юридических наук, профессор, академик АП УзССР — она многое сделала для развития правовой науки и совершенствования советского законодательства в республике. Ее жизнь и дела – яркий пример для нас, для подрастающего поколения.



34 X-20

Хадича Сулаймонова — ҳуқуқшунос, олима, давлат арбоби/ М.Ҳақимов, Ғ. Аҳмедов, А.Саидов.— Т.: Ўзбекистон, 1993.—151 б.

Рисола ўбек халқининг асл фарзанди, давлат ва жамоат арбоби академик Хадича Сулаймонова таваллудининг 80 йиллигига бағишланди.

Хадича Сулаймонова қисқа, лекин ўта жўшқин ва сермазмун ҳаёт кечирди. У ўз даврининг, ўз халқининг оташин фарзанди эди, кўп борада биринчилардан эди. Хадича Сулаймонова ўзбек аёллари орасидан илк бор етишиб чиққан биринчи ҳуқуқшунос олим, профессор, Ўзбекистон Фанлар академиясининг шу соҳадаги ҳақиқий аъзоси, академиги, Адлия вазири, Республика Олий Суди Раиси эди. Унинг ҳаёти ва фаолияти биз учун, ёш авлод учун ёрқин ибратдир.

Рисола кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хадича Сулаймонова — ҳуқуқшунос, олима, давлат арбоби М.
Ҳакимов, Ғ. Аҳмедов, А. Саидов. — Т.: Ўзбекистон, 1993. — 151 б.
2. Буюк истеъдод соҳиблари: -Т.: Адолат, 2002.-118 б.
3. Уч машхур ўзбек аёли. – Т.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022.-214 бет.
4. Акбаров Ш. Агар дардим баён этсам... – Т.: Наврўз, 2020. – 376.
5. История советского государства и права Узбекистана: (1917-1924)
Часть 1. - Т.: Фан, 1960. - 512 С. - 2 Р. 20 к.
6. История советского государства и права Узбекистана: (1924-1937)
Часть 2. - Т.: Фан, 1963. - 826 С. - 4 Р. 31 к.
7. История советского государства и права Узбекистана: (1937-1958)
Часть 3. - Т.: Фан, 1968. - 676 С. - 3 Р. 35 к.

AXBOROT-RESURS MARKAZI

**O'ZBEKNING OLIMA AYOLI
XADICHA SULAYMONOVA**

(110 yilligiga bag'ishlangan yorqin yodnoma)

Nashr uchun javobgar: X.M.Pirmedova.

Muharrir: Sh. Jahonov

Tuzuvchilar: Z.N.Talipova

Dizayner: M.S.Talipova



Министерство культуры
Удмуртской Республики
Удмуртский государственный университет
Информационно-методический центр
Удмуртского государственного университета
Информационно-методический центр
Удмуртского государственного университета

№	1	2	3	4	5
1	2	3	4	5	6
7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36
37	38	39	40	41	42
43	44	45	46	47	48
49	50	51	52	53	54
55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66
67	68	69	70	71	72
73	74	75	76	77	78
79	80	81	82	83	84
85	86	87	88	89	90
91	92	93	94	95	96
97	98	99	100	101	102
103	104	105	106	107	108
109	110	111	112	113	114
115	116	117	118	119	120
121	122	123	124	125	126
127	128	129	130	131	132
133	134	135	136	137	138
139	140	141	142	143	144
145	146	147	148	149	150
151	152	153	154	155	156
157	158	159	160	161	162
163	164	165	166	167	168
169	170	171	172	173	174
175	176	177	178	179	180
181	182	183	184	185	186
187	188	189	190	191	192
193	194	195	196	197	198
199	200	201	202	203	204
205	206	207	208	209	210
211	212	213	214	215	216
217	218	219	220	221	222
223	224	225	226	227	228
229	230	231	232	233	234
235	236	237	238	239	240
241	242	243	244	245	246
247	248	249	250	251	252
253	254	255	256	257	258
259	260	261	262	263	264
265	266	267	268	269	270
271	272	273	274	275	276
277	278	279	280	281	282
283	284	285	286	287	288
289	290	291	292	293	294
295	296	297	298	299	300
301	302	303	304	305	306
307	308	309	310	311	312
313	314	315	316	317	318
319	320	321	322	323	324
325	326	327	328	329	330
331	332	333	334	335	336
337	338	339	340	341	342
343	344	345	346	347	348
349	350	351	352	353	354
355	356	357	358	359	360
361	362	363	364	365	366
367	368	369	370	371	372
373	374	375	376	377	378
379	380	381	382	383	384
385	386	387	388	389	390
391	392	393	394	395	396
397	398	399	400	401	402
403	404	405	406	407	408
409	410	411	412	413	414
415	416	417	418	419	420
421	422	423	424	425	426
427	428	429	430	431	432
433	434	435	436	437	438
439	440	441	442	443	444
445	446	447	448	449	450
451	452	453	454	455	456
457	458	459	460	461	462
463	464	465	466	467	468
469	470	471	472	473	474
475	476	477	478	479	480
481	482	483	484	485	486
487	488	489	490	491	492
493	494	495	496	497	498
499	500	501	502	503	504
505	506	507	508	509	510
511	512	513	514	515	516
517	518	519	520	521	522
523	524	525	526	527	528
529	530	531	532	533	534
535	536	537	538	539	540
541	542	543	544	545	546
547	548	549	550	551	552
553	554	555	556	557	558
559	560	561	562	563	564
565	566	567	568	569	570
571	572	573	574	575	576
577	578	579	580	581	582
583	584	585	586	587	588
589	590	591	592	593	594
595	596	597	598	599	600
601	602	603	604	605	606
607	608	609	610	611	612
613	614	615	616	617	618
619	620	621	622	623	624
625	626	627	628	629	630
631	632	633	634	635	636
637	638	639	640	641	642
643	644	645	646	647	648
649	650	651	652	653	654
655	656	657	658	659	660
661	662	663	664	665	666
667	668	669	670	671	672
673	674	675	676	677	678
679	680	681	682	683	684
685	686	687	688	689	690
691	692	693	694	695	696
697	698	699	700	701	702
703	704	705	706	707	708
709	710	711	712	713	714
715	716	717	718	719	720
721	722	723	724	725	726
727	728	729	730	731	732
733	734	735	736	737	738
739	740	741	742	743	744
745	746	747	748	749	750
751	752	753	754	755	756
757	758	759	760	761	762
763	764	765	766	767	768
769	770	771	772	773	774
775	776	777	778	779	780
781	782	783	784	785	786
787	788	789	790	791	792
793	794	795	796	797	798
799	800	801	802	803	804
805	806	807	808	809	810
811	812	813	814	815	816
817	818	819	820	821	822
823	824	825	826	827	828
829	830	831	832	833	834
835	836	837	838	839	840
841	842	843	844	845	846
847	848	849	850	851	852
853	854	855	856	857	858
859	860	861	862	863	864
865	866	867	868	869	870
871	872	873	874	875	876
877	878	879	880	881	882
883	884	885	886	887	888
889	890	891	892	893	894
895	896	897	898	899	900
901	902	903	904	905	906
907	908	909	910	911	912
913	914	915	916	917	918
919	920	921	922	923	924
925	926	927	928	929	930
931	932	933	934	935	936
937	938	939	940	941	942
943	944	945	946	947	948
949	950	951	952	953	954
955	956	957	958	959	960
961	962	963	964	965	966
967	968	969	970	971	972
973	974	975	976	977	978
979	980	981	982	983	984
985	986	987	988	989	990
991	992	993	994	995	996
997	998	999	1000	1001	1002
1003	1004	1005	1006	1007	1008
1009	1010	1011	1012	1013	1014
1015	1016	1017	1018	1019	1020
1021	1022	1023	1024	1025	1026
1027	1028	1029	1030	1031	1032
1033	1034	1035	1036	1037	1038
1039	1040	1041	1042	1043	1044
1045	1046	1047	1048	1049	1050
1051	1052	1053	1054	1055	1056
1057	1058	1059	1060	1061	1062
1063	1064	1065	1066	1067	1068
1069	1070	1071	1072	1073	1074
1075	1076	1077	1078	1079	1080
1081	1082	1083	1084	1085	1086
1087	1088	1089	1090	1091	1092
1093	1094	1095	1096	1097	1098
1099	1100	1101	1102	1103	1104
1105	1106	1107	1108	1109	1110
1111	1112	1113	1114	1115	1116
1117	1118	1119	1120	1121	1122
1123	1124	1125	1126	1127	1128
1129	1130	1131	1132	1133	1134
1135	1136	1137	1138	1139	1140
1141	1142	1143	1144	1145	1146
1147	1148	1149	1150	1151	1152
1153	1154	1155	1156	1157	1158
1159	1160	1161	1162	1163	1164
1165	1166	1167	1168	1169	1170
1171	1172	1173	1174	1175	1176
1177	1178	1179	1180	1181	1182
1183	1184	1185	1186	1187	1188
1189	1190	1191	1192	1193	1194
1195	1196	1197	1198	1199	1200
1201	1202	1203	1204	1205	1206
1207	1208	1209	1210	1211	1212
1213	1214	1215	1216	1217	1218
1219	1220	1221	1222	1223	1224
1225	1226	1227	1228	1229	1230
1231	1232	1233	1234	1235	1236
1237	1238	1239	1240	1241	1242
1243	1244	1245	1246	1247	1248
1249	1250	1251	1252	1253	1254
1255	1256	1257	1258	1259	1260
1261	1262	1263	1264	1265	1266
1267	1268	1269	1270	1271	1272
1273	1274	1275	1276	1277	1278
1279	1280	1281	1282	1283	1284
1285	1286	1287	1288	1289	1290
1291	1292	1293	1294	1295	1296
1297	1298	1299	1300	1301	1302
1303	1304	1305	1306	1307	1308
1309	1310	1311	1312	1313	1314
1315	1316	1317	1318	1319	1320
1321	1322	1323	1324	1325	1326
1327	1328	1329	1330	1331	1332
1333	1334	1335	1336	1337	1338
1339	1340	1341	1342	1343	1344
1345	1346	1347	1348	1349	1350
1351	1352	1353	1354	1355	1356
1357					